

# O`zbekiston Respublikasida Voyaga Yetmaganlar Huquqbazarligi, Ular Uchun Belgilangan Jazo Va Huquqbazarlikni Oldini Olish Choralari

Inomjonov Zaxiriddin Zafarjon og`li<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yoshlar jinoyatchiligi, jinoyat uchun belgilangan jazo, huquqbazarlikni keltirib chiqaruvchi hamda bartaraf etish yo`llari, davlatimiz tominidan yoshlarga e`tibor, jinoyatchilikni oldini olish bo`yicha chora tadbirlar masalasi ko`rsatib o`tilgan.

**Kalit so`z:** Jamiyat, huquq, jinoyat, qonun, tarbiya, jazo, qasd, ehtiyyotsizlik, yosh, konvensiya, subyekt, obyekt.

O`zbekiston qadim o`tmishiga, shuningdek shonli tarixiga ega diyor. Bu yurtda ne-ne ulug` zotlar, faylasuf hamda mutafakkirlar yetishib chiqqan. Agar ularni sanasak adog`iga yetmaymiz. Ular o`zlarining ma`nan yetukligi, yuksak axloqiy fazilati bilan biz avlodlarga o`rnak bo`ladilar. Biroq hozirgi davrda jamiyatimizda ayrim illatlar borki ular insonlar qalbini xira qiladi. Bular sirasiga o`g`rilik, firibgarlik, haqoratdan tortib inson hayotiga tajovuz qlishgacha keltirishimiz mumkin. Bu illatlarni jamlab huquqbazarlik deb atasak mubolag`a bo`lmaydi adashmasam. Bu yo`lga qarshi chiqish uchun esa avvalo insonlarni yoshlikdan to`g`ri tarbiya bera olish kerak.

Bolalik, bu insonning kamol topib yetishishida boshlang`ich qism. O`zbekiston respublikasida Bola huquqlari ularning manfaatlari davlat tomonidan kafolatlangan hamda jamiyat tomonidan to`g`ri yo`lga qo`yilgan. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab, nafaqat inson manfaatlari balki bola huquqlarini himoya qilish yuzasidan qator ishlar olib bordi. Xususan 1992-yilda “Bola huquqlari to`g`risida”gi Konvensiyani ratifikatsiya qildi. 2008 yil 7 yanvarda esa bola huquqlarining kafolati to`g`risidagi qonunini imzoladi. 2016 yilda esa O`zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risidagi qonunini qabul qilindi. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ham farzandlar voyaga yetgunlariga qadar ota-onalar qaramog`ida ekanligi belgilab qo`yilgan. Davlatimiz qonunchiligidagi bola huquqlari to`la kafolatlangan. Endi bir savol tug`iladi, avvalo bola kim? bola bu “Bola huquqlari to`g`risida”gi Konvensiyaga muvofiq 18 yoshga yetmagan har qanday shaxs bola hisoblanib uning hatti harakatlari kattalarnikidan farq qilishi hamda davlat tomonidan muhofaza etilishi belgilab qo`yilgan.<sup>2</sup> Biroq davlatda Inson huquqlari qanchalik himoya qilinmasin o`zga shaxslar tomonidan huquqning buzilish xollari ko`zga tashlanmoqda. Ayrim xollarda bu huquqbazar shaxslarning voyaga yetmaganligi, bola ekanligi esa, ko`ngilni xira qiladi.

Huquqbazarlik bu jamiyat uchun xavfli bo`lgan qilmish xisoblanib, huquqbazarlik sodir etgan shaxsga nisbatan yuridik javobgarlik yuklatiladi. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, huquqbuzqrlikni 4 turga ajratish mumkin bular jinoiy huquqbazarlik, ma`muriy huquqbazarlik, intizomiy huquqbazarlik hamda fuqaroviylar huquqbazarlik. Voyaga yetmaganlar orasida asosan jinoiy hamda ma`muriy huquqbazarliklar sodir etilmoqda. O`rganish natijasiga ko`ra Respublikamiz hududida sodir etilgan huquqbazarliklar mos ravishda 100% deb olsak, shuning 49% ni kollej va litsey talabalari 25% ni maktab o`quvchilari, 4,9% ni esa ish bilan ta`minlanmaganlar sodir etgan. Bular asosan o`grilik, haqorat, firibgarlik, o`zgalar shanini yerga urish kabi huquqbazarliklardir. Nega aynan Huquqbazarliklarning eng katta foizi kollej talabalari o`rtasida sodir etilmoqda? Bunga nima sabab bo`lmoqda degan savol kishini o`ylantiradi. O`quvchilar o`rtasida o`tkazilgan so`rovnoma hamda otanonalar fikrini o`rganish davomida shunga amin bo`ldikki, bu yosh toifasida inson psixologiyasida o`zgarishlar bo`lib juda qiziquvchan hamda atrofdagilarga ayrim xollarda aggressiv munosabatda bo`ladilar natijada jazava paydo bo`lishi so`ngida esa huquqbazarlik sodir etilishiga olib keladi. Ayni paytda Respublika aholisining 40 foizini voyaga yetmaganlar tashkil etadi.<sup>3</sup> Bu esa bizdan bolalarga jiddiy e`tibor qaratish kerak ekanligini talab etadi. Shunday ekan avvalo, ota onalar o`z farzandlariga alohida e`tibor qaratishlari lozim. So`ngi uch yil ichida Respublikamizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklar bir muncha kamaygan. Huquqbazarliklarning bu yosinda qisqarishi insonni quvontiradi albatta. Bunga mahalla ta`lim muassasasi oila hamkorligida erishilmoqda.

Bir savol tu`g`iladi voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklar uchun qanday jazo mavjud ularning bola ekanligi inobatga olinadimi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda sud quyidagi holatlarni hisobga olishi lozim:

1. voyaga yetmaganning rivojlanganlik darjasini;
2. voyaga yetmaganning turmush sharoiti va tarbiyasini;

<sup>1</sup> Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Gumanitar fanlar” kafedrasini assistenti

<sup>2</sup> “Bola huquqlari to`g`risidagi” konvensiya www.tergov.uz

<sup>3</sup> https://www.statistika.uz 2022yil

3. katta yoshdagilarning unga nisbatan ta'sirini;
4. voyaga yetmaganning sog`ligini;
5. sodir etilgan jinoyatning sabablarini;
6. jinoyat sodir etish motivini.

Bundan tashqari jinoyat protsessual kodeksi 548-moddasida ham voyaga yetma-ganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo`yicha isbotlanishi lozim bo`l-gan holatlarga yuqoridagilardan tashqari quyidagilar ham kiritilgan:

- 1) voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi (tug`ilgan yili, oyi, kuni);
- 2) voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar;
- 3) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
- 4) katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo`qligi.<sup>4</sup>

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ham qasddan va ehtiyyotsizlikdan sodir etiladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan qasddan sodir etilgan jinoyatlarda ko`pchilik hollarda voyaga yetganlardagidek qasd kuchli bo`lmaydi. Shuni ta`kidlash kerakki bu yoshdagi bolalar qiziqqonlik tufayli qasddan sodir etidhi mumkin va bu qilmishining ijtimoiy havfilingini hamda uning oqibatini o`ylamagan bo`lishi mumkin bu sud tomonidan inobatga olinadi. Jinoyat sodir qilgan voyaga yetmagan shaxs o`z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishi, ijtimoiy xavfliligini anglashi qiyin bo`ladi, agar uni bilsa ham, o`z-o`ziga ishonish orqali ijtimoiy xavfli oqibatni oldini olish mumkin deb o`laydi, ammo uni bartaraf eta olmaydi.

Voyaga yetmagan shaxs tomonidan ehtiyyotsizlik orqasidan ji-noyat sodir etilganda jinoyat tarkibi subyektiv tomoni belgilari, shaxs-ning individual mezonlari (intelektual jihatdan to`liq rivojlanmagan-lik, ruxiyatining o`ziga xosligi, hayotiy tajribaga ega emasligi) ijtimoiy xavfli oqibatni anglab yetishiga imkon bermaydi.

Voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda jinoyatning maqsad va motivi katta ahamiyatga ega. Voyaga yetmagan shaxsning his-hayajonga tez beriluvchanligi yuzaga kelgan o`zgarishlar, birinchi navbatda, ularning hodisani anglashi va faoliyatida o`z aksini topadi. V.A.Ribalskayaning fikricha voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga davlatdagi ijtimoiy, iqtisodiy o`zgarishlar ham ta`sir etadi. Bu holat boshqacha yashash sharoitining vujudga kelishi, mehnat qilishdagi, ta`lim olishdagi o`zgarishlar bilan bog`liq bo`ladi<sup>5</sup>.

Voyaga yetmaganlarga bir qancha jinoyatlar uchun jazo tayinlashda kattalarga jazo tayinlashdan farqli ravishda javobgarlikka tortilayotgan shaxsnинг yoshi (13 yoshdan 16 yoshgacha, 16 yoshdan 18 yoshgacha), shuningdek, voyaga yetmaganlarga tayinlanishi mumkin bo`lgan jazoning yuqori chegarasi hisobga olinadi.

Voyaga yetmaganlarga jinoyatlar majmui bo`yicha jazo tayinlashda sud Jinoyat kodeksining 59-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilish lozim. Ammo jinoyat uchun oxirgi jazo chorasi Jinoyat kodeksi 86-moddasiga muvofiq tayinlanadi.

o`n uch yoshdan o`n olti yoshgacha bo`lgan vaqtida jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlanganda ozodlikdan mahrum qilishning eng ko`p muddati o`n yilgacha, agar sodir etgan jinoyatlarning bittasi o`ta og`ir jinoyat bo`lsa, o`n ikki yilgacha tayinlanadi.

O`n olti yoshdan o`n sakkiz yoshgacha bo`lgan vaqtida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmuvi tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi – o`n ikki yilgacha muddatga, agar sodir etgan jinoyatlarning bittasi o`ta og`ir jinoyat bo`lsa, o`n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin.

Jinoyat sodir etish vaqtida o`n uch yoshdan o`n sakkiz yoshgacha bo`lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o`n besh yildan oshmasligi kerak. Agar Jinoyat kodeksi 72-moddasida belgilangan shartlar va asoslar mayjud bo`lsa, sud voyaga yetmagan shaxsga nisbatan shartli jazo belgilashi mumkin.<sup>6</sup>

Xalqimizda bir maqol bor “kasalni davolagandan ko`ra uni oldini olgan yaxshi” voyaga yetmagan shaxslar o`rtasida umuman insonlar o`rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo`lgan joyda baraka va rivojlanish bo`ladi. Respublikamizda huquqbazarlikni oldini olich yuzasidan qanday ishlar amalaga oshirilmoqda o`tgan yillar mobaynida hududlarda voyaga yetmaganlar huquqbazarligini oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda shuningdek maktablarda haftaning har payshanba kuni “tig”, pichoq” tadbrlari “Yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish” va “Yoshlar orasida giyohvand vositalarning tarqatilishiga qarshi kurashish” mavzularida profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda<sup>7</sup>

<sup>4</sup> M.H.Rustamboyev Jinoyat huquqi Toshkent davlat yuridik instituti 12.08.06

<sup>5</sup> Миньковский Г.М., Магомедов А.А., Ревин В.П. Уголовное право России. (Учебник. Под. ред. док. юрид. наук. проф. В.П.Ревина) // –М.: Брандес, 1998.

<sup>6</sup> O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar –T.: Adolat, 1997.

<sup>7</sup> Surxondaryo viloyati IIB Axborot xizmati www.iiv.uz

Jamiyatda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida, avvalo yoshlar o`rtasida axloqiy tarbiyani bolalikdan mustahkamlash kerak buning uchun nima qilish kerak degan savol paydo bo`ladi? “Qadimgi davrlarda biro ta ona farzandli bo`lib hakim zotning oldiga borib bolamiz tug`ilganinga 1 oy bo`ldi tarbiyani qachondan boshlasak bo`ladi deganlarida tarbiya berish uchun 10 oyga kech qolibsizlar tarbiyani farzandingiz onaning qornidaligida boshlash kerak edi degan ekan”. Shundan kelib chiqib, avvalo tarbiya berishda onaning aqlu zakovati eng muhim xisoblanadi bekorga ota-bobolarimi tarbiyani oilada olishni boshlash kerak demagan.

Voyaga yetmaganlar ortasida huquqiy tarbiyani mustahkamlash hamda huquqbazarlikni oldini olish uchun:

1. ota-onal uyda kitobxonlikni yo`lga qo`yishlari kerak. Buni tizimli yo`lga qo`yish uchun hukumat tomonidan eng zukko oila tadbiri avvalo mahallalarda so`ngra tumanda tashkil etish kerak.
2. Bolalarni bog`cha yoshidan boshlab tengdoshlarini hurmat qilishga chaqirish va ota-onal har yaxshi ish uchun kichik mukofot bilan taqdirlash kerak.
3. Maktab yoshidagi bolalarning yoshlariga mos ravishda huquqbazarlikni oldini olishni targ`ib etuvchi multfilm va videofilmlarni ko`rsatish bola ongini yaxshilik tomon yo`naltirish kerak.
4. Yuqoridagi ishlar hamma tomonidan birdak bajarilsa jamiyatda huquqbazarliklar soni kamayadi. Axolining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati ancha rivojlanadi.